

**Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlash
bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

2026-yil 1-iyul holatiga

“Ijro.gov.uz” tizimidagi Davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-sonli, 2025-yil 25-iyuldagi PF–117-sonli farmonlari hamda 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qarori asosida tashkil qilingan yagona va uzluksiz “texnologik zanjir” asosida amalga oshirilib, ijro intizomiga rioya etish borasida qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib, muayyan natijadorlikka erishildi.

Har haftaning dushanba kunlari vazir huzurida hamda juma kunlari vazirning ijro intizomiga mas’ul o‘rinbosani huzurida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Administratsiya rahbari va Hukumatning hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi tanqidiy muhokama qilib borilmoqda.

2026-yilning iyun oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Administratsiya rahbari hamda Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarini 25 iyunga qadar ijrosini ta’minlashga qaratilgan I–II kartoteka topshiriqlar ro‘yxati 8 may kuni, vazir o‘rinbosarlari kesimidagi Kalendar reja hamda “Yo‘l xarita”lar ishlab chiqilib, vazir Sh.Xamrayev imzosi bilan eslatma va ijro uchun barcha vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Joriy yilning iyun oyida vazirlik asosiy ijrochi bo‘lgan Davlat rahbarining jami 277 ta topshiriqlaridan 275 tasi, ya’ni 99,3 foizi bajarilgan, 1 tasini muddat uzaytirish yuzasidan Adliya vazirligiga takliflar kiritilgan va 1 tasini bajarish choralari ko‘rilmoqda, Prezident Administratsiyasi rahbarining 43 ta topshiriqlaridan 42 tasi, ya’ni 97,7 foizi bajarilgan, 1 tasini bajarish choralari ko‘rilmoqda hamda Vazirlar Mahkamasining 36 ta topshiriqlari to‘liq bajarilgan.

Shuningdek, 2026-yil iyul oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 341 ta, Administratsiya rahbarining 38 ta hamda Vazirlar Mahkamasining 35 ta topshirig‘i nazoratga olingan.

Tashkiliy nazorat va tahlil bo‘limi